



Jonuzoqova Chaman Murodulla qizi  
Alisher Navoiy nomidagi O`zbek tili va  
Adabiyoti universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

## BADIIY TARJIMADA GAP TUZILISHIGA KO'RA SHAKLLARINING TARJIMA ADEKVATLIGIGA TA'SIRI

(Xayriddin Sultonning "Bunchalar shirinsan, ey achchiq hayot!" hikoyasi  
misolida)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gapning tuzilishiga ko'ra shakllari va ularning tarjimadagi ahamiyati yoritilgan. Mavzuni tahlil qilishda Xayriddin Sultonning "Bunchalar shirinsan, ey achchiq hayot!" hikoyasi va ushbu hikoyaning Mahmuda Saydumarova tomonidan tayyorlangan tarjimasi obyekt qilib olindi. Maqolada sodda va murakkab gaplarning tarjimada tuzilishi o'zgarish jarayoni tahlil qilingan.

**Kalit soʻzlar:** gap tuzilishi, sodda gap, murakkab gap, adekvatlik.

**Annotation:** This article describes the forms according to the structure of the sentence and their importance in translation. In the analysis of the topic, the story by Khayriddin Sultan - "How sweet you are, you bitter life!" and its translation by Mahmuda Saidumarova were taken as objects. The article analyzes the process of changing the structure of simple and complex sentences in translation.

**Key words:** sentence structure, simple sentence, complex sentence, adequacy.

Tarjima jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, bu jarayonda yechilishi murakkab muammolar ko'p bo'lgani holda, bu muammolarga yechim topishning usullari ham anchagina. Shunday omillardan biri gap tuzilishining tarjima jarayonini murakkablashtirib yuborishidir. Murakkab gaplar ba'zan gap qismlarida kontekstual noaniqlikni keltirib chiqaradi. Bu holat tarjimondan nafaqat ma'noni to'la anglash, shu bilan birga anglangan ma'noni o'zga tilga adekvat holda yetqazib berishni talab qiladi.



Ushbu maqolada biz gap tuzilish shaklining asiyat tilida murakkablik tug'dirishi bilan birga tarjima jarayonidagi muammolarga yechim bo'lish xususiyatini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, gaplarning kesim ishtirokiga ko'ra turlari gapning tuzilishiga ko'ra ikki turli deyiladi va ular sodda gap yoki qo'shma gap bo'lishi mumkin. Sodda gap bitta kesimlik belgisiga, mazmuniy va ohang tugalligiga ega bo'lgan gap bo'lsa, qo'shma gap ikki yoki undan ortiq sodda gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan va ohang tugalligiga ega bo'lgan butunlik gapdir.

Tahlil uchun tanlangan hikoyada sodda gaplarni dialoglardan tashqari juda kam uchratamiz. Bu shuni ko'rsatadiki badiiy asarlarda murakkab gap tuzilishi kengroq qo'llaniladi.

"Azonni eshitgan ahli muslim bu kun ham shosha pisha tahorat olib, yaxlagan yo'laklardagi qor-qirovlarni g'ijirlatgan cha ertalabki izg'irinda junjika-junjika masjid sari shoshildi; bu kun ham past-baland tomlar ustida har doimgidek zaif, beqaror ko'kish tutun xiyla vaqt muallaq osilib turdi; bu kun ham quyosh xuddi sovqotayotgandek osmonda bir muddat siyqa tanga kabi xira yaltirab, so'ng pag'a pag'a kulrang bulutlar ostiga kirib ko'zdan yo'qoldi, tirikchilik g'amida yaydoq ko'chalarda sarson suringan turfa odamlar bu kun ham shaharning ruhsiz qiyofasiga ma'yus bir jonlanish bergandek bo'ldilar..."<sup>30</sup>

And as usual, after hurriedly performing ablution while shivering in the cold, the Muslims headed to the mosque. As they walked on the pavement, the sound of their boots walking on the freshly-fallen snow could be heard. Also, as usual, there was a thin, bluish fog hanging on top of the high and low roofs. Today also, even the sun that looked like a worn-out coin shone its rays for just a little while and, as if feeling cold, hid itself under thick, gray clouds. And as usual, the people of the city scattered in the empty streets, with the hope of trying to make a living, and somehow livened the bleak and gloomy city."<sup>31</sup>

Yuqorida berilgan misolda yozuvchi tasvirlarni shu qadar ketma-ket teradiki, bu o'zbek kitobxonlari uchun qiyinchilik tug'dirmasligi mumkin. Lekin tarjimada badiiy

<sup>30</sup> Xayriddin Sultonov. "Bunchalar shirinsan, ey achchiq hayot!" 1979.

<sup>31</sup> Mahmuda Saydumarova. A collection of uzbek short stories. Bloomington. IN. USA. 2013.



tasvirlarning bir gapda bu qadar ko'p kelishi o'quvchida chalg'ishni, hatto tasvirning kontekstdagi o'rnini yo'qotib qo'yilishini keltirib chiqarishi mumkin. Tarjimon bu holatning oldini olish maqsadida bir nechta kichikroq murakkab gaplar hosil qiladi. Bu o'quvchiga anglash uchun qulaylik beradi. Bunda gaplarning bir gap ichidagi bog'liqlik holatini saqlash uchun bog'lovchilardan samarali foydalaniladi.

"Ikkita yo'rg'a to'riq qo'shilgan zangori kareta shaldiragancha maydonga kirib keldi. Shohsupa yonida turgan ad'yutantlardan biri shosha-pisha borib kareta eshigini ochdi. Barra qunduz mo'ynali po'stinlari ostidagi moviy ko'ylaklarning burm aetaklarini avaylab ko'targancha ikkita xonim oldinma-keyin karetdan tushdi. Yoshi o'tinqirabroq qolgan, lekin hali raso qaddi-qomati buni yashirib turgan birinchi ayol sherigiga nimanidir uqtira-uqtira, shohsupa sari yurarkan, Kaufman uning istiqboliga ikki-uch qadam peshvoz chiqdi. Gubernatorni qurshagan a'yonlar tabassum bilan unga ergashdilar."

Bu misolda faqatgina murakkab tarzda yasalgan ot vazifasini o'tovchi burun bir bo'lak alohida gap shaklida berib olingan va keyingi yasalgan gapda bu muarakkab eganing vazifasini olmosh bajaradi: " One of them was somewhat old, yet her good-looking appearance hid this. Saying something to her friend, she headed to the platform and as she did so Fon Kaufman also took some steps towards her."

Quyidagi gapda ham ikkita murakkab gapdan iborat bo'lgan parcha uchta gap tarzida beriladi. Gaplarga ajratishda kontekstda o'zaro tugallik hosil qilayotgan tasvirlar bitta gapda beriladi.

"Suvoriy esa o'ktam matonat bilan tobora yaqinlashib kelar, to'riq bedov bir tekis yo'rg'alar, dodxohning yuzlarida, mahkam qimtilgan lablarida sokin, xotirjam, hatto ulug'vor bir ifoda aks etar edi. Go'yo u o'lim changalidagi o'g'lini ko'rmayotgandek, uning sitamkor nolasini eshitmayotgandek, oppoq sochlari to'zg'igan boshini baland ko'targancha mag'rur ot yo'rttirib kelardi.

The rider approached with beautiful strength; her horse strided with steady steps. Dodkhoh's face reflected silence and sublime tranquility, as if she was completely blind to her song being about to be killed and as if she could not hear his painful murmurings. She proudly approached with her white-haired head held high.



Bu jarayonda qo'llashimiz mumkin bo'lgan bir qator tarjima usullari mavjud. Erkin tarjima quyidagi usullarni o'z ichiga oladi: "transpozitsiya", "modulyatsiya", "adaptatsiya" va "ekvivalentlik" va Vinay va Darbelnetning aytishicha, bu strategiyalar faqat so'zma-so'z tarjima qilish imkoni bo'lmaganda qo'llaniladi. Transpozitsiya keng tarqalgan tizimli o'zgarish bo'lib, tarjimonlar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan usullaridan biri. Transpozitsiya ma'noni o'zgartirmasdan nutqning bir qismini boshqasiga o'tkazishdir. Modulyatsiya asliyat matnining semantikasi va nuqtai nazarini biroz o'zgartirib ma'noni o'zgartirmasdan beradi. Masalan gaplarning passivga o'zgartirilishi.

Odatda matndagi ba'zi uzun jumlar ikki yoki undan ortiq qisqaroq jumalarga bo'linadi va bu jarayonda ma'lumotni saqlash uchun bog'lovchilarning ahamiyati ortadi. Bunga, masalan, bog'lovchi so'zlar, anaforik olmoshlar va ifodalarni takrorlash misol bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ma'no yaqqolligini oshirish uchun qisqaroq jumlar va ko'proq bog'lovchi qurilmalar ishlatiladi. Bir nechta ot so'z birikmalari faol fe'l bilan bo'laklarga aylantiriladi, ya'ni transpozitsiya qilinadi. O'qish osonroq bo'lishi uchun modulyatsiya usulidan foydalanib tarjima qilinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.XayriddinSultonov. "Bunchalarshirinsan,eyachchiqhayot!" 1979.
- 2.Mahmuda Saydumarova. A collection of uzbek short stories. Bloomington. IN. USA. 2013.
- 3.Shannoy Vasuvat. Analysis of Sentence Structures through Translation. King Mongkut's University of Technology Thonburi, Bangkok, Thailand. 2014.
4. Anna Nyqvist. To Translate and Adapt a text with Long Sentences. Linnaus University. 2012.

